

Prezident Shavkat Mirziyoyev Berlinga keldi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 20 yanvar kuni rasmiy tashrif bilan Germaniya poytaxti Berlin shahriga keldi.

Tegel xalqaro aeroportida oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tortdi. Davlatimiz rahbarini Germaniya rasmiy shaxslari kutib oldi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 21 yanvarga mo'ljallangan. Prezident Shavkat Mirziyoyev Berlinda Federal Prezident Frank-Walter Shtaynmayer, Federal kansler Angela Merkel va Bundestag Raisi Wolfgang Shoyble bilan uchrashuvlar o'tkazadi.

Muzokaralarda O'zbekiston bilan Germaniya o'rtaqidagi siyosiy muloqotni mustahkamlash, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va moliyaviy hamkorlikni rivojlantirish, madaniy-gumanitar, fan-ta'lim va turizm sohalaridagi aloqalarni faollashtirish kabi masalalarni muhokama qilish ko'zda tutilgan.

O'zA